



**MÁMLEKETLIK AKTIVLERDI BASQARÍW AGENTLIGINI N'
QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ AYMAQLÍQ BASQARMASÍ**

B U Y R I G I

No'kis qalasi

№05

06-Yanvar 2023 yil.

Mulk huquqini tasdiqlovchi davlat orderining asl nusxasiga «tasarruf etish huquqi bilan» belgisi kiritish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida”gi 1991 yil 19 noyabr' kungi 425-XII-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 6 oktyabr kungi 279-sonli Qarori, Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat aktivlari boshqarmasida 2020 yil 22 aprel kuni RK-371-e-son bilan ro'yxatga olingan oldi-sotdi shartnomasiga, Investor tomonidan investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlarining bajarilishini qabul qilish komissiyasining 2022 yil 26 dekabr kungi RK-22/2022IM-sonli bayonnomasiga asoslanib

B U Y U R A M A N :

1. Investor tomonidan belgilangan investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlarning bajarilishini qabul qilish komissiyasining 2022 yil 26 dekabr kungi RK-22/2022IM-sonli bayonnomasida «Kushmag-Gold Doors» MChJ tomonidan Qarao'zek tumani “Ata-makan” OFYda joylashgan «omborxon» binosida tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun qabul qilingan investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlari bajarilgan deb e'tirof etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Kushmag-Gold Doors” MChJning 2023 yil 5 yanvar kungi 1-sonli xatida hududiy boshqarma tomonidan berilgan mulk huquqini tasdiqlovchi davlat orderi (001917-sonli blankasi)ga “tasarruf etish huquqi” yozuvini kiritishni so'rab yozgan murojaati qanoatlantirilsin.

3. Davlat aktivlarini sotishga tayyorlash va sotish ishlarini muvofiqlashtirish bo'limi (Q.Qarlibaev) hududiy boshqarma tomonidan “Kushmag-Gold Doors” MChJga (2021 yil 13 yanvar kungi 0022092-son bilan ro'yxatga olingan) 001917-raqamli mulk huquqini tasdiqlovchi davlat orderi blankasiga “investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlarni qabul qilish komissiyasining 2022 yil 26 dekabr kungi RK-22/2022IM-sonli bayonnomasiga asosan “Kushmag-Gold Doors” MChJga mazkur orderda qayd etilgan ob'ektni “tasarruf etish huquqi bilan berildi” belgisi kiritilishini ta'minlasin.

4. Shartnomalarni rasmiylashtirish va monitoring bo'limi (P.Tan'atarov) “Kushmag-Gold Doors” MChJga davlat orderiga “tasarruf etish huquqi bilan” belgisi kiritilgandan so'ng uch kun muddat ichida hujjatlarni belgilangan tartibda hududiy boshqarmaning idoraviy arxiviga topshirilishini ta'minlasin.

5. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Boshqarma boshlig'i



M.Radjapov